

## CHINGIZ AYTAMATOVNING “OQ KEMA” QISSASI ASOSIDA SEMIOTIK BELGILARNING PARADIGMATIK TAHLILI

**Ergashaliyeva Havoxon**

*Namangan davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti*

**Shavkatjon Abdurahmonov**

*O'qituvchi :Filologiya fanlari nomzodi;dotsent*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada semiotika va semiotik belgi ,pragmatika va semantikaning belgilar bilan bog'liqligi va Chingiz Aytmatovning “Oq kema” qissasida uchraydigan asosiy semiotik belgilar tahlil qilinadi. Asardagi belgilar paradigmasi insoniyat va tabiat, ezgulik va zo‘ravonlik, orzu va haqiqat o‘rtasidagi ziddiyatni ifodalaydi. Belgilar o‘zaro oppozitsiyalarda namoyon bo‘lib, qahramonning ichki dunyosi va dramatik kechinmalari orqali badiiylashtirilgan,asarning qiymatini bir necha marta oshirgan.*

**Kalit so‘zlar:***semiotika , semantika,pragmatika, semiotik belgi, paradigma, oq kema, bolalik, mif, inson va tabiat, zo‘ravonlik, umid.*

Semiotika (yun. semiotikos — belgilar haqidagi ta’limot), semiologiya — 1) axborot, ma’lumotlarni saqlash va uzatish uchun xizmat qiladigan belgilar va belgi tizimlarining umumiy xususiyatlarini o‘rganadigan fan sohasi; 2) u yoki bu obyektning bir ma’nodagi Semiotika nuqtai nazaridan o‘rganiladigan tizimi (mas, muayyan film yoki badiiy asar Semiotika si, muayyan xalqdagi muomala-murojaat Semiotika si va boshqalar).

Lingvistik Semiotika dagi asosiy tushuncha lisoniy belgi bo‘lib, u muayyan matnlardagi va muomala vaziyatidagi shakl va mazmunning dialektik birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Belgi o‘zi shartli ravishda aloqador bo‘lgan narsa haqida muayyan jamiyat vakillariga xabar beradi. Belgilarning eng muhim va murakkab tizimi tilshunoslik o‘rganadigan tildir. Belgi tizimlari tabiiy (inson tili, xayvonlarning belgi tizimlari) va sun’iy (yasama, sun’iy tillar, dasturlash tili, fizika, kimyo, matematika va mantiqdagi ramzlar tizimi) bo‘ladi. Belgilar va belgi tizimlarini o‘rganishda sintaktika, semantika va pragmatika o‘zaro ajratiladi. Sintaktika nutq zanjirida yoki muayyan matnda ketma-ket, izchil qo‘llanadigan til birliklari o‘rtasidagi o‘ziga xos munosabatlarni o‘rganadi. Semantika belgilarning ular ifodalaydigan ob’yektlar bilan munosabatini o‘rganadi. Pragmatika esa belgilar, ular ifodalaydigan ob’yektlar hamda belgilar tizimidan foydalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadi. Yuqorida aytilgan ma’lumotlarning hammasini quyida namuna sifatida keltirilgan asar timsollari asosida ko‘rishimiz mumkin.

Chingiz Aytmatov ijodida inson va jamiyat, inson va tabiat o‘rtasidagi ziddiyat doimo markaziy mavzulardan biri bo‘lgan. “Oq kema” qissasi bu borada nafaqat ruhiy fojia, balki timsollar va belgilar bilan boyitilgan falsafiy asardir. Ushbu maqolada qissadagi asosiy belgilar — oq kema, shoxdor ona bug‘u, Mo‘min chaqqon, O‘rozqul, bolakay, tog‘, daryo, toshlar gullar, kichkina yo‘l, mashina-magazin, portfel, kabi obrazlar paradigmatic bog‘lanishda tahlil qilinadi.

1. “Oq kema” belgisi: orzu, najot va ruhiy qochish timsoli

Oq kema bolakay uchun: Orzular manzili, otani topishga umid, baxtli kunlar boshlanishi, yolg‘izlikning tugashi, eng muhimi oilasini birlashtiruvchi nurli maskan.

U denotativ jihatdan oddiy kema bo‘lsa-da, konnotativ jihatdan umid, oqlik, poklik, baxt, timsolidir. U hayotdagi qora haqiqatdan ruhiy najotga aylangan belgi-paradigmadir.

Belgi	Sinonimik belgilar	Qarama-qarshilik	Semantik yuki
Oq kema	Umid, najot, erkinlik	Zo‘rlik, yaxshilik, ajralish	Ruhiy qutulish, orzular maskani

2. Qissada bolakay obrazining belgi sifatidagi roli alohida ahamiyatga ega. U: tabiat bilan uyg‘unlik, bolalarcha samimiyat va quvnoqlik, mif afsonalarga haqiqat deb qarab, ulardan ezgulik va yaxshilik kutuvchi, ayni damda yolg‘izlik, kattalar dunyosini tushunishga urinayotgan, ona mehrini ko‘rmagan, mashina magazinni bu dunyoning eng ajoyib narsasi deb o‘ylaydigan, baliqqa aylanib, Issiqko‘lgacha boradigan, o‘z oilasini ana shu yerda deb o‘ylagan mitti yurak egasi, asardagi eng buyuk timsoldir.

Bolakay, oq kema, ona bug‘u, Mo‘min chol, baliq; ↔ Ezgulik, yaxshilik, muhabbat, mehr-oqibat chaqirtikanak, O‘rozqul, qabiladagi kampir, ↔ Zo‘ravonlik, jaholat, yovuzlik, ikkiyuzlamachilik belgisi bo‘lib kelgan.

Bu belgilar oppozitsiyasida madaniyat va insoniyat qadriyatlarining yemirilishi ko‘rsatiladi.

3. Bolakay obrazi va ruhiy belgilar

Bolakayning harakati, orzulari va fikrlari orqali belgilar tarmoqlanadi. U – yashash uchun emas, tushunish uchun tug‘ilgan bola. Uning belgilar paradigmasida quyidagilar mavjud:

Pozitiv belgilar

Qarama-qarshi belgilar

Oq kema	zulum , zolimlik
Bolakay	qirg‘in, befarqlik
Baliq	zo‘ravonlik ,shafqatsizlik
Tabiat	atrof -muhitni nobud qilish

Ushbu belgilar bolaning ichki olami orqali ochiladi va o‘quvchida ruhiy fojiani uyg‘otadi.

#### 4. Paradigmatik tahlil jadvali:

Markaziy belgi - Oq kema .U asarda orzu, oq rang, dengiz,poklik ma'nolarini ifodalab , „ Qorong‘ulik, zo‘ravonlik " so'zlari bilan oppozitsion qarama -qarshilikni ko'rsatadi.Funksiyasi:ruhiy najot.

Markaziy belgi - Bug'u ; qarindosh belgilari: ona, poklik, tabiat. Bu belgilar,, qurol o'lim " so'zlari bilan qara- qarshilikni yuzaga keltiradi. Funksiyas: ezgulik

Markaziy belgi - Bola ; qarindosh belgilar: Poklik, ishonch, samimiyat ,oppozitsion qarama -qatshilik- kattlarning tushunarsiz dunyosi . Funksiyasi:Jamiyat tanazzuli

Markaziy belgi: Tog‘, daryo, gullar, toshlar ;qarindosh belgilari: abiat, erkinlik, do'stlik,ishonch,yuksalish,qarama -qarshiligi - qishloqdagi ziddiyatlar, tabiatni nobud qilish,yolg‘izlik.Funksiyasi: Ichki ozodlik,bola olami.

Markaziy belgi - Boltek ;asarda quvnoqlik sinonimligini hosil qilib , dangasalik faoliyat-jarayon oti bilan qarama - qarshilikni yuzaga keltirgan.Funksiyasi: mazmunsiz umr

Markaziy belgi - Mashina magazin ;qarindosh belgilari: sehrlı ajoyibot , qarama - qarshiligi - vafosizlik . Funksiyasi : kamchiliksiz hayot.

Xulosa qilish mumkinki, “Oq kema” qissasi — bu belgilar orqali o‘qiladigan ruhiy tragediya. Asarda oq kema, shoxdor ona bug'u,toshlar ,gullar ,mashina magazin ,bug'u shoxlarida olib kelishi kerak bo'lgan beshik,bola va boshqa tabiat obrazlari semiotik belgi sifatida ishlatiladi. Bu belgilar paradigmasi orqali Aytmatov insoniyat va jamiyat, orzu va haqiqat, ezgulik va zo‘ravonlik,yaxshilik va yomonlik ,ajdodlar xotirasiga hurmat va urf - odatlarni mensimaslik o‘rtasidagi abadiy kurashni falsafiy va badiiy shaklda tasvirlaydi. Belgilar paradigmatik bog‘lanishda o‘zaro zid, biroq ma’no jihatdan tutash belgilar zanjirini hosil qiladi. Bu esa asarning falsafiy teranliligini ochib beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Aytmatov Ch. Oq kema. – Bishkek: “Sham”, 2015.
2. Lotman Yu.M. Semiosfera. – Moskva: Progress-Traditsiya, 2004.
3. Mamatov Sh. Aytmatov asarlarida mifologik timsollar. – “Adabiyot nazariyasi”, 2019.
5. To‘xtaeva Z. Bolalar obrazining semiotik talqini. – Toshkent: Fan, 2021.